



## “LISON UT-TAYR” TARJIMASIDA BADIY SAN’AT VOSITALARINING TALQINI

**Muallif:** Turaxanova Xosiyat Maxamadolimovna<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Namangan davlat texnika universiteti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202731>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-Tayr” asarining tarjima jarayonida badiiy tasvir vositalarining aks ettirilishi tahlil qilingan. Xususan, metafora, metonimiya va mubolag’a kabi san’at vositalarining tarjimada qanday talqin etilgani ko’rib chiqilgan. Asliyat va tarjima matnlari taqqoslanib, tarjimon tomonidan yo’l qo’yilgan kamchiliklar hamda muqobil tarjima usullari tahlil qilingan. Maqolada tarjimaning semantik va stilistik jihatdan asliyatga mosligini ta’minlash bo’yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, Lison ut-Tayr, badiiy tarjima, metafora, metonimiya, mubolag’a, semantik moslik, tarjima nazariyasi.

### KIRISH

Sharq va G’arb xalqlari o’zining madaniyati, diniy e’tiqodi va dunyoqarashi jihatidan farqlanadi. O’rta asrlarga oid Sharq adabiyotida badiiy asarlar Oллоhga hamd aytish bilan boshlanishi urfga aylangan. Alisher Navoiy ham “Lison ut-Tayr” dostonida Oллоhni ulug’lash, payg’ambarga salovat aytish, Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali maqtovi bilan dostonni boshlagan. Ushbu muhim boblar G’arb tarjimonlari tomonidan aksariyat hollarda e’tibordan chetda qoldiriladi va tarjima XIV bobdan boshlanadi. Bu esa asarning mazmun-mohiyatini yetarlicha anglash va idrok etishga to’sqinlik qiladi.

### ASOSIY QISM

Alisher Navoiyning “Lison ut-Tayr” dostoni Sharq tasavvufiy adabiyotining yorqin namunasi bo’lib, unda insonning kamolot sari yo’li ramziy qushlar sayohati orqali tasvirlangan. Ushbu dostonning tarjima jarayoni turli murakkab jihatlariga ega bo’lib, ayniqsa, badiiy tasvir vositalarini to’g’ri aks ettirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tarjima jarayonida metafora, metonimiya va mubolag’a kabi san’at vositalari maxsus e’tibor talab qiladi. Masalan, dostonda “jon qushi” metaforasi inson ruhini tasvirlash uchun ishlatilgan bo’lsa, uning ingliz tiliga “the bird of spirit” tarzida tarjima qilinishi adekvat tarjima usulining qo’llanganini ko’rsatadi. Bu holat tarjimaning semantik mosligini ta’minlagan bo’lsa-da, boshqa badiiy unsurlar, jumladan, diniy va falsafiy kontekstlar har doim ham to’liq aks ettirilmagan.

Metonimiya misolida “beshinchi ko’k” iborasi analiz qilinadi. Asliyatda bu jumla Payg’ambar Muhammad (s.a.v)ning me’roj kechasidagi ruhiy yuksalishiga ishora qiladi. Ushbu ibora ingliz tiliga “the fifth blue” shaklida tarjima qilingan bo’lsa-da, uning chuqur

3

diniy ma'nosi to'liq aks ettirilmagan. Shu sababli, tarjima jarayonida ekvivalent va muqobil usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mubolag'a san'ati ham "Lison ut-Tayr" tarjimasida katta rol o'ynaydi. Navoiy Attorning ilmiy salohiyatini tasvirlashda "Attor do'konidagi durlar"ni "kechasi jilva qilayotgan yulduzlar"ga qiyoslaydi. Ushbu mubolag'ali tasvir asliyatda kuchli badiiy ta'sirga ega bo'lsa-da, tarjimada bunday ifodalar ba'zan soddalashtirilishi kuzatiladi.

Ushbu maqolada tarjima jarayonida metafora, metonimiya va mubolag'a kabi badiiy tasvir vositalarining aks ettirilishiga e'tibor qaratiladi.

### 1. Tarjima amaliyoti va muammolari

Dolimov o'zining "Tarjima san'ati va muammolari" asarida tarjima jarayonining ikki bosqichdan iboratligini ta'kidlaydi:

1. Asliyat matnini idrok etish
2. Uni tarjima tilida aks ettirish

Lekin "Lison ut-Tayr" tarjimonlari ushbu bosqichlarni to'liq amalga oshirmagan. Bu esa tarjima jarayonida badiiylik va asliyatga moslik darajasining pasayishiga sabab bo'lgan.

### 3. Metaforik talqin masalasi

Asliyatda: *"Jon qushi o'z sirlarini bayon qilishga kirishar ekan, uni Allohga madhiya o'qish bilan boshlaydi. Chunki Alloh barcha mavjudotlarning yaratuvchisidir. U mangu barhayot bo'lib, undan boshqa hamma narsa o'tkinchidir."*

Inglizcha tarjimada: *"As the bird of spirit is going to reveal its secrets, starts it by praising for Allah. Because Allah is the creator of all creatures. He is eternally alive and everything else is transitory."*

Bu yerda "jon qushi" metaforik obraz bo'lib, inson ruhining parvozi, ilohiy oshuftaligi tasvirlanadi. Tarjimada "the bird of spirit" shaklida berilgan. Tarjimaning adekvat usulda amalga oshirilganligi sababli metaforaning badiiy ifodasi saqlanib qolgan.

### 4. Metonimiya talqini

Asliyatda: *"Buroqini beshinchi ko'kka surganida, Nahsi Asg'ar shu zahoti Sa'di Akbar bo'ldi. Sa'di Akbar tomon yo'li tushganida, uning nazaridan saodat nuri yo'naldi."*

Inglizcha tarjima: *"When he pushes his Buraq on the fifth blue, Nahsi Asghar immediately became Sa'di Akbar. As he made his way towards Sa'di Akbar, the light of bliss is directed by his look."*

"Beshinchi ko'k" iborasi metonimiya san'atiga asoslangan bo'lib, osmonning beshinchi qavati nazarda tutilgan. Bu Me'roj kechasi bilan bog'liq diniy tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Tarjimada "the fifth blue" deb berilgan bo'lsa-da, "heaven" yoki "sky" so'zlaridan foydalanish aniqroq bo'lar edi.

### 5. Mubolag'aning tarjimadagi o'rni

Asliyatda: *"Olamdagi barcha dengiz va konlarda nimaiki bor bo'lsa, yuzlab o'shancha narsalar Attor do'konida mavjuddir. Uning ma'nolar dengizidagi durlar xuddi kechasi jilva qilayotgan yulduzlarga o'xshaydi."*

Inglizcha tarjima: *"Everything that exists in all the seas and mines of the world is found hundreds of times in Attar's shop. The pearls in his ocean of meanings are like the stars shining at night."*

Bu joyda mubolag'a orqali Farididdin Attorning yuksak ilmi, uning so'z san'atidagi mahorati ulug'langan. Tarjimada mubolag'a saqlanib qolgani ijobiy hol bo'lsa-da, "Attar's shop" iborasi "Attar's treasury" yoki "Attar's world of wisdom" deb tarjima qilinganida yanada aniqroq bo'lar edi.

## XULOSA

Badiiy tarjima jarayonida asliyat matnini to'laqonli anglash, uning kontekstini tushunish va ma'naviy-madaniy tafovutlarni inobatga olish lozim. "Lison ut-Tayr" tarjimasida badiiy tasvir vositalari to'liq aks ettirilmagan holatlar mavjud. Xususan, diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lgan tushunchalar tarjimada yo'qotishlarga uchragan. Badiiy tarjima jarayonida ekvivalent, adekvat va muqobil usullardan foydalanish, tarjimaning semantik va stilistik jihatdan asliyatga mosligini ta'minlash lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Navoiy, A. The Language of the Birds. Translated by H.Dyck. – Bloomington: Indiana University Press, 2001.
3. Dolimov, S. Tarjima san'ati va muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. G'afurov, I. Badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Newmark, P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
6. Turahanova Hosiyat. (2023). LINGUO-CULTURAL STUDY OF THE ENGLISH TRANSLATION OF THE EPIC "LISON UT-TAIR". Conferencea, 170–172. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/2429>
7. Turahanova, H. (2021). The Poetics of "Lison Ut-Tayr". Middle European Scientific Bulletin, 19, 319-321. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021>.
8. Turahanova Hosiyat Mahamadolimovna. (2024). Leveraging The Classroom Environment As A Source Of Vocabulary In EFL Classes . American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(1), 32–35. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/52>